

## **O'QUVCHILARDA MATN YARATISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VA UNING ILMIY ASOSLARI**

**Dilnura Avezova,**

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

**G'ulomova Sarvinoz**

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarning matn yaratish ko'nikmalarini rivijlantirish, matn haqida to'liq ma'lumot berish va uning ilmiy asoslari yoritilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion usullar, joriy tahlil, yondashuvlar, komponentlar, baholash mezonlari.

**Abstract.** In this article, the development of the creation skills of students of general education schools, given full information about the text and its scientific basis is highlighted.

**Key words :** Innovative methods, current analysis, approaches components, evaluation criteria.

Bugungi kunda, yozma nutqni rivojlantirish va umumta'lim maktablarida o'quvchilarning o'qib tushunish, shu orqali ularning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini oshirish muhim ahamiyat kasb ermoqda. O'quvchilarda matn yaratish qobiliyatini o'stirish avvalgi metodlardan tashqari yangi metodlar ishlab chiqilmoqda. Sababi hozirgi kundagi yosh avlodning fikrlashi ancha kengayib bormoqda. Shuning uchun ham zamon talabiga mos va yoshlarning o'ziga jalb eta oladigan zamonaviy uslublar ishlanmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida o'quvchilarning matni to'g'ri tahlil qilish hamda uni yarata olish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ko'plab metodist olimlar tomonidan uslubiy qo'llanmalar, ilmiy ishlar ishlab chiqilib amaliyotga tavsiya etimoqda.

I, Azimovanning "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" (monografiya), T. Ziyodovanning "Matn yaratish texnologiyasi", N. Bekniyazovning "Bo'shlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi" (monografiya), R. Baxritdinovning "Umumta'lim maktablarining 7-9-sinf

o'quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari' (Dissertatsiya).

Ona tili va adabiyot o'qituvchilariga qo'yiladigan asosiy talab- ulg'ayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatish hamda mantiqiy , tanqidiy fikrlashini o'stirish, nozik fikr sohibi bo'lishini ta'minlashdir. Bu borada nazariy va amaliy ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

**O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish  
texnologiyalari**

<b>Didaktik texnologiya</b>	<b>Loyiha texnologiyasi</b>	<b>Muammoli o'qitish texnologiyasi</b>	<b>Hamkorlikd a ishlash texnologiyasi</b>
Rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmon o'yinlar, konferensiya darslari, matbuot konferensiya-si, o'yinmashq-lar.	Izlanish xarakteridagi loyihalar, ijodiy loyihalar, tadqiqot xarakteridagi loyihaqlar(nostandart testlar, video roliklar) takomillashtirildi.	“Pochta” o'yini, “Musiqiy topishnoq” kabi murakkab video topishmoqlar takomillashtirildi. Metodlar:muammoli izlanish xarakteridagi suhbat, muammoli bayon, muammoli amaliy ishlar, munozara darslar.	Ota-ona, maktab, kutubxona hamkorligi, shoir yozuvchilar, radio-televideniye integratsiyasi. Metod-lar komandada o'qitish, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish zig-zag.

O'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda foydalanilgan innovatsion texnologiyalar nutq madaniyati elementlarining rivojlanganlik darajasiga muvofiq ta'lim mazmunini tanlash, o'quvchilarni bilim olish, mustaqil

ijodiy izlanishga yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini rivojlanganlik darajasi dinamikasini tadqiq etish, ijodkor o'quvchilarni inson kapitali darajasiga yo'naltirish asosida umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyoti fani o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning didaktik o'quv topshiriqlari ishlab chiqildi.

Muammoli ta'lim texnologiyasida munozarali matn va muammoli vaziyat yaratilgan topshiriqlar yaratildi.

Matn yaratish kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qituvchilarning o'rni, dars o'tish taktikasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dars mobaynida o'quvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan metodik qo'llanmalar, o'yinlardan foydalanish muhim ro'l o'ynaydi. O'quvchilarni intellektual salohiyatini o'stirish hamda mantiqiy, tanqidiy fikrlay olishini ta'minlash o'qituvchining vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, "matn bilan ishlash" va "matn yaratish" kabi o'quv topshiriqlarini mohiyatini farqlash, ularning didaktik ta'limdagi o'rni hamda ahamiyati haqida ham to'xtalish zarur. Matn bilan ishlash o'quvchini yo'naltiradi, fikrlab taqqoslashga undaydi; matn yaratish kompetensiyaviy ko'nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Matn yaratish faoliyati		
Matnni tahliliy idrok etish	Matnni ijodiy talqin etish	Klaster matnli faoliyati

O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, tahliliy mushohada qobiliyatini shakllantirish va tarmoqli fikrlash ko'nikmasini qaror toptirish

maqsadida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida tahliliy, ijodiy va klaster modulidan foydalanib uch bosqichli jarayon amalga oshirildi.

Tahliliy jarayonda muallifning g'oyasiga kirib borishga imkon beradi, ya'ni mikromavzu, kengaytirilgan mavzu, kalit va tayanch so'zlari, muallifning kommunikativ vazifasi, matnning semantik qismi, matn tarkibi, matn jumalari va qismlarining aloqasi vositalari kabi tushunchalaridan foydalanishga yordam berdi. Ijodiy matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish faoliyati jarayonda shakllanib amalga oshirildi.

Metodik qo'llanmalarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil matn bilan ishlash faoliyati vazifalari yoritilgan va bu amalga tadbiiq etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi matn haqida to'liq va atroflicha ma'lumot berish, o'quvchilarning ijodiy hamda mantiqiy tafakkurini o'stirishdan iborat hamda ularda notiqlik san'ati kompetensiyalarini rivoj toptirishni o'ziga maqsad qilib olgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rasulova.R.B. Umumta'lim maktablarining 7-9-sinf o'quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantiririshning innovatsion texnologiyalari dissertatsiya-Chirchiq-2023
2. Mavlonova.K, Yo'ldosheva.R,Xakimova.N. Matn tuzulishiga oid qoidalar o'quv metodik qo'llanma.- Toshkent:Nodirabegim.2021.
3. Ziyodova.T.U."Matn yaratish texnologiyasi". Toshkent – 2007.Fan nashriyoti.
4. <http://natlib.uz> (O'zbekiston milliy kutubxonasi)
5. Burkhanova, F. (2022). ABOUT THE ANALYSIS OF THREE STORIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 174-178.
6. Bayramovna, A. D. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA ADABIY TALAFFUZ KO 'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING ZARURATI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 28, 24-26.
7. Burkhanova F. The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi //Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation. – T. 32. – №. 3. – C. 32467-32472.